

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-martida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 2294,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi.


2018 yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 1243,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	mlrd.so'm		2017 yil yanvar-martga nisbatan % da
	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart	
I. YaHM	1575,5	2294,2	105,8
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1467,1	2036,3	105,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	108,4	257,9	105,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1467,1	2036,3	105,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	52,6	71,1	102,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	605,7	997,2	107,4
sanoat	476,9	817,3	104,3
qurilish	128,8	179,9	119,1
Xizmatlar	808,8	968,0	104,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	136,4	168,4	102,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	182,7	198,1	104,3
boshqa xizmat tarmoqlari	489,7	601,5	105,7

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish tarmog'ining o'sish sur'ati 119,1 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 8,8 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 107,4 % (48,9 %), boshqa xizmat turlari – 105,7 % (29,6 %), xizmatlar – 104,8 % (47,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sanoat tarmog'i – 104,3 % (mos ravishda 9,7 % va 40,4 %) ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-martda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




iqtisodiy faoliyat turlari

Qoraqalpogiston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 88,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa, 11,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,1 % punktga kamaydi va hisobot davrida 3,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmoqning ulushi 7,6 % punktga oshdi va 48,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2018 yil yanvar-martda 47,6 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (55,1 %) bilan tasdiqlanganda 7,5 % punktga kamaydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

2017 yil yanvar-mart



2018 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,3 % ni (2017 y. – 9,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 9,7 % ni (12,5 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 29,6 % ni (33,3 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda):**

**2017 yil
yanvar-mart**



**2018 yil
yanvar-mart**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma
axborot-tahliliy ishlar bo'limi**

Tel.: (0-361) 222-74-58;

(0-371) 230-82-03